

O‘ZBEK TILIDA SO‘ZLARNING LINGVODIDAKTIK TAHLIL XUSUSIYATLARINI KAKOGRAFIYA USULI YORDAMIDA O‘RGANISH

Valijon Qahramonov

*Samarqand viloyati Qo‘shrabot tumani
40-son maktabning ona tili va adabiyot fani o‘qituvchisi*

Annotatsiya: *Ushbu maqolada o‘zbek tilida so‘zlarning lingvodidaktik tahlil xususiyatlar haqida, lingvodidaktikaning o‘rganilishi haqida mulohaza yuritilgan. Shuningdek so‘zlarning lingvodidaktik tahlil xususiyatlarini kakografiya usuli asosida o‘rganish bo‘yicha tavsiyalar berilgan.*

Kalit so‘zlar: *lingvodidaktika, o‘zbek tili, tahlil, kakografiya, pedagogika, ona tili, nutq, so‘z, xato, topshiriq, imlo, lingvistika, matn.*

ИЗУЧЕНИЕ ОСОБЕННОСТЕЙ ЛИНГВОДИДАКТИЧЕСКОГО АНАЛИЗА СЛОВ В УЗБЕКСКОМ ЯЗЫКЕ МЕТОДОМ КАКОГРАФИИ

Аннотация: *В данной статье рассматриваются особенности лингводидактического анализа слов в узбекском языке, изучение лингводидактики. Также даны рекомендации по изучению особенностей лингводидактического анализа слов на основе метода какографии.*

Ключевые слова: *лингводидактика, узбекский язык, анализ, какография, педагогика, родной язык, речь, слово, ошибка, задание, орфография, лингвистика, текст.*

LEARNING THE LINGUODIDACTIC ANALYSIS FEATURES OF WORDS IN THE UZBEK LANGUAGE USING THE METHOD OF COCOGRAPHY

Abstract: *In this article, the linguodidactic analysis of words in the Uzbek language and the study of linguodidactics are discussed. Also, there are recommendations for studying the linguodidactic analysis of words based on the cacography method.*

Key words: *linguodidactics, Uzbek language, analysis, cacography, pedagogy, native language, speech, word, error, assignment, spelling, linguistics, text.*

Jahon mamlakatlarining ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishida XXI asr katta o‘zgarishlarga boy davr bo‘lmoqda. Taraqqiyot o‘z ortidan ta’limni ham ergashtirmoqda. Fanda ham har kuni turli xil yangiliklar paydo bo‘layotgan bir davrda, til sohasiga ham yangi tushunchalar kirib kelmoqda. Shular orasidan lingvodidaktika yo‘nalishini atroflicha izohlasak maqsadga muvofiq bo‘lardi. Tilshunoslik va pedagogika fanlari tutashgan nuqtada lingvodidaktika fani vujudga keldi.

Lingvodidaktika til o‘rgatish, aniqrog‘i chet tillarni o‘rganish jarayonini ifoda etish uchun qo‘llanmoqda. Lingvodidaktika va metodika terminlarini sinonim tarzda baholash

hollari ham mavjud. Xorijiy tillarni o'rganish metodikasi XX asr o'rtalarida shakllangan mustaqil fandır. Metodikani didaktikaning pedagogika, pedagogik psixologiya oraliq'ida turuvchi bir qismi sifatida baholagan I.L.Bim metodikaning obykti sifatida dastur, darslik, o'quv qo'llanma, o'qituvchi va o'quvchi faoliyatini hamda ular o'rtasidagi o'zaro hamkorlikning asosini tashkil etadigan shakllarni o'z ichiga oluvchi ta'lim-tarbiya jarayonini keltiradi.

Lingvodidaktikada, garchi ko'p hollarda chet tillarini o'rganish usullari hamda vositalariga urg'u berilgan bo'lsa-da, ona tili va o'zga tillarni o'qitishning mazmuni, vositalari hamda usullarini tahlil qiluvchi fandır.

Lingvodidaktika – “ta'lim, o'quv jarayoni mazmuni komponentlarini asoslovchi, til tabiati va tilning sotsial fenomenini sifatidagi individning o'zaro faoliyati mexanizmi”ni o'rganuvchi, til o'qitish metodikasini pedagogika, didaktika, pedagogik psixologiya, lingvistika va yosh pedagogikasi bilan bog'liq ravishda talqin qiluvchi, kompyuter lingvodidaktikasi, kompyuter dasturlari, o'qituvchi lingvistik avtomatlarning til ta'limidagi ahamiyatini yorituvchi amaliy soha.

O'zbek tilshunosligida lingvodidaktika masalalari yaqin yillardan boshlab o'rganila boshlandi. Lingvodidaktikada ta'lim nafaqat o'quv jarayoni bilan, balki individning shaxsiy faoliyat mexanizmiga ham bog'liq. Ya'ni til o'zlashtirish uchun shaxsning idroki va qobiliyatidan kelib chiqib yondashish kerak.

Ona tili va o'zga tillarni o'rganuvchi o'quvchilarning yoshi, madaniyati, individual xususiyatlariga qarab matn tanlab olinadi. Matn – o'rganilayotgan til birligi. Tillarni o'rganish biz o'ylaganimizchalik oson ish emas. Chunki ular zamirida o'sha xalqning milliy olami, kechasi, buguni, ertasi ham yashiringan. Tilning milliy qiyofasi matnlarda aks etar ekan, ularni shunchaki bilimimizni oshirish uchun o'rganish yetarli bo'lmaydi. Matn ostidagi g'oya qal'aning darvozasiga o'xshaydi. Shu sababdan matn qanchalik to'g'ri tushunilib qabul qilinsa, tilni o'rganish shunchalik osonlashadi. Demak, o'quvchilarni milliy matnlar bilan ko'proq tanishtirishimiz kerak. “Bir ko'r hazrati Luqmonning oldilariga kelub, “agar ko'zimni ochsangiz, men sizga qul bo'lurman”, – demish. Hakim ko'rni ma'lumot sohibi ekanini bilub, jonim, ko'zingning pardasini ochmoq mumkin, lekin nazari ibratni ochmoq qo'limdan kelmaydur”, – demishlar. Ko'r: “Yo Luqmon! Sizning shuhratingiz faqat parda ochmoqdan iborat bo'lsa, sizni hakim demay tabib demak lozim ekan”, – deb hazrati Luqmonning ibrat ko'zini ochmishdur. Janobi Haq biz musulmonlarning ham ko'zimizdan g'aflat pardasini ko'tarub, ibrat ko'zimizni ochsa edi”. Ushbu hikoya o'quvchini tafakkur qilishga undaydi va uning psixik ongiga ta'sir qiladi. Natijada ikki so'zning semantik farqlanishi o'quvchi tomonidan osongina tushuniladi.

Har bir til o'zida moddiy olamni adyektivat aks ettirishdan tashqari ruhiy olamni ham o'rinda tugal ifoda qiladi. Insonlarda har bir narsaga o'z munosabat bildirish, fikrini aytilish imkoniyati bor va bu imkoniyat har doim tilning malum bir shakllari bilan yuzaga chiqariladi.

Tilning o'ziga xos go'zalligini tinglovchilarga yetkazish, his qildirish, sezish va undan oqilona foydalanish uchun til ta'limida an'anaviy usullardan tashqari zamonaviy axborot va pedagogik texnologiyalardan ham unumli foydalanib kelinmoqda. Oxirgi yillarda ushbu BBB, breynrayting, breynstorming, kichik guruhlarda ishlash, aqliy hujum, FSMU, bumerang, zig-

zag, blits-so'rov, klaster, muzyorar, sinkveyn, keys-stadi, insert, germenektiv suhbat, esse kabi turli tuman metodlar paydo bo'ldi. Shunday usullardan biri kakografiyadir.

Kakografiya so'zi lotin tilidan kakos – yomon, xunuk, yoqimsiz va graphos – yozmoq so'zlaridan olingan bo'lib, biror maqsadni ko'zlab xatoliklarga yo'l qo'yilgan matnni tuzatirish orqali o'quvchilarga imloni o'rgatish usuli sanaladi. Kakografiya usulining pedagogik va didaktik jihatlari to'liq ochib berilmagan. Bunda rus tili adabiyotlarida какофонический, какофония degan jumlar mavjud bo'lib, ularga lug'atlarda quloqqa yoqmaydigan, yoqimsiz, nosoz, g'aliz; uyg'unlashmagan, yoqimsiz tovushlar yig'indisi degan izohlar berilgan, bunda so'z semantikasiga salbiy baho yuklaydi. Shunga ko'ra, kakografiya usulida yozuv bilan bog'liq g'alizlik, yoqimsizlik yashiringanga o'xshaydi, lekin orfografik jihatdan qaralganda u bilan bog'liq didaktik hamda pedagogik jihatlarni ochib berish masalaga oydinlik kiritishi mumkin.

Kakografiya metodi interfaol metodlardan biri sifatida o'quvchilarni mustaqil fikrlashga, narsalarni bir-birlari bilan solishtirishga, izlanishga, masalaning yechimini topishga undaydi, eng muhimi ona tili darslarida olingan bilim va malakalariga asoslanib, muayyan mavzular bo'yicha kerakli xulosalar chiqarishga yordamlashadi. O'quvchilardagi beparvolik, loqaydlikni yo'qotib, dadil bo'lishga, ijod qilishga chorlaydi, mutelik, tobelik, nefaollik kabi yomon xususiyatlarga chek qo'yadi.

Bu metodni 2 xil usulda qo'llash mumkin:

1-usul. O'quvchilarga imloviy xatolarga yo'l qo'yib yozilgan matn tarqatiladi. Buni har bir o'quvchiga tarqatish ham, guruhlarga bo'lib tarqatish ham mumkin. O'quvchilar matnda yo'l qo'yilgan xatolarni topadilar va nima sababdan xato deb hisoblaganlarini izohlaydilar. Metodni qo'llashni aniq misolda ko'rsak:

Tozalik. Kishini qandayligi ish joyidan bilinadi. Ilg'or ishchilar dastgoxlarini doimo toza tutadilar. Yerga turli chiqindilar tashlamaydilar. Dastgox yaqinida chiqndi uchun mahsus idish turadi. Hatto latta va supirgi ham bo'ladi. Ilgakda sochiq osig'liq turadi. Dastgox tepasidagi qo'shaloq chiroqda ham chang bo'lmaydi. Asboblarni xammasi tartbli qo'yiladi. Ular tokchada saxlanadi. Palapartshlik yomon odat. Chunki bu ish unimini pasayishiga sabab bo'ladi. (58 so'z)

Topshiriq.

Yuqoridagi matndan xato yozilgan so'zlarni topib yozing va nima sababdan xato ekanligini izohlang.

_____	_____
_____	_____
_____	_____
_____	_____
_____	_____
_____	_____

Masalan, dastgox so'zi imloviy jihatdan xato. Chunki, dastgoh so'zida bo'g'iz undoshi "h" qo'llaniladi.

2-usul. Bu metodni rasmlardan foydalangan holda qo'llash ham mumkin. O'quvchilarga turli reklama, peshtaxtalardagi xato yozilgan so'zlarning rasmlari tushirilgan tarqatmalar tarqatamiz. Ular rasmlardan xato yozilgan so'zlarni topishlari kerak bo'ladi. Masalan:

Quyida keltirilgan peshtaxtalarda qo'llanilgan imloviy xatolarni toping.

Misol uchun, 1-rasmda choyhona so'zi xato yozilgan. Choyxona so'zida chuqur til orqa undoshi "x" yoziladi

Kakografiya metodidan foydalanish uchun g'oyalar. Bu metodni asosan ona tili darslarida fonetika, grafika, orfografiya, leksika va morfologiya bo'limlari bilan bog'liq amaliy darslarni o'tishda qo'llasa yaxshi samara beradi. Masalan, o'quvchilarga unli va undosh tovushlar bo'yicha ma'lumotlar berilgach, "Mustahkamlash darslari" yoki "Takrorlash darslari"da turli topshiriqlardan foydalanish maqsadga muvofiq bo'ladi. Bunda asosiy e'tibor so'zlarning aytilishi va yozilishi o'rtasidagi farqqa qaratiladi.

Tajribalardan ma'lumki, o'quvchilarning ayrimlari ona tili darslarida imlo qoidalarini puxta o'zlashtirmaydilar. So'zlar qanday aytilsa, shunday yozishga odatlanib qoladilar. Va yana o'quvchilarning nutqidagi dialektal xatoliklar ularning savodxonligiga soya solidi. Bu esa bora-bora ulardagi savodxonlik darajasining yo'qolishiga, so'zlarni doimiy ravishda xato yozilishiga sabab bo'ladi.

Masalan, o'quvchilarning og'zaki nutqida orden, obod, marvarid, shanba, mas'ul, daryo, baho, bahor, bilan, yulduz, teatr, savol kabi so'zlarni ordin, obot, marvarit, shamba, ma'sul, dayra, boho, bohor, blan, yuldiz, tiatr, sovol tarzida talaffuz qilish va shu asosda xato yozish amaliyotda uchraydi. Bu narsa ularda unli va undosh harflar imlosi bo'yicha ona tili darslarida yetarli bilim va malakaga ega bo'lmaganliklarini bildiradi. Bu kabi xatoliklarning oldini olish uchun "O'zbek tilining imlo qoidalari"dagi "Ayrim unli va undoshlar imlosi" yuzasidan zarur nazariy ma'lumotlar berilib, mavzular o'tilgach, quyidagicha topshiriq berish mumkin:

So'zlarni o'qing, xato yozilgan o'rinlarni topib, o'zbek tilning imlo qoidalariga mos ravishda ularni to'g'rilang va daftaringizga ko'chirib yozing. Kanferensiya, komyuter, maylis, bugalter, hayol, xayo, xolol, momila, xuqiq, rektir va hokazo.

To'g'ri yozilishi: Konferensiya, kompyuter, majlis, buxgalter, xayol, hayo, halol, muomala, halol, huquq, rector.

Kakografik yo'nalishdagi bunday topshiriqlar bajarish orqali quyidagi natijalarga erishish mumkin:

- o'qituvchi va o'quvchi o'rtasidagi aloqa mustahkamlanadi;
- o'quvchilar ona tilidan olingan bilimlarni esga olishga harakat qiladi;
- o'rganilgan narsalarni bir-biriga solishtiradi, taqqoslaydi;
- xulosa chiqaradi, orfografik bilim va tushunchalarni mustahkamlaydi.

Og'zaki nutqda d – t, z – s, h – x, b – p, kabi birining o'rniga ikkinchisi ko'p qo'llaniladigan undosh tovushlarning imlosini o'rganishda kakografiya metodi samaralidir. Bu jarayonda xato yozilgan so'zlarni o'quvchilarga taqdimot orqali ko'rsatish, doskaga ataylab xato yozish, so'zlari xato yozilgan tarqatmalarni qo'llash kabi vositalardan foydalanish yaxshi samara beradi.

Masalan: Xato yozilgan so'zlarni aniqlab, ularni imlo qoidalariga mos ravishda to'g'rilang va daftaringizga ko'chirib yozing.

Xamma, Xindiston, hatti-xarakat, hayol, orombahsh, zahira, hoxish, xol-ahvol, hiyonat, ihlos, xar hil

To'g'ri yozilishi: Hamma, Hindiston, xatti-harakat, xayol, orombaxsh, zaxira, xohish, hol-ahvol, xiyonat, ixlos, har xil.

Kakografiya metodidan leksikologiya bo'limi bilan bog'liq mavzularni o'tishda ham foydalanish mumkin. Matn ichida bir tovush bilan farqlanuvchi halok-halok, kaft-kift, asl-asil, asr-asir, dars-darz, bob-bop, mart-mard, qasr-kasr, qaram-karam, oxir-axir-oxur, chog'-choq-choh singari paronim so'zlarni xato yozib, o'quvchilardan ularni to'g'rilab yozishni so'rash ulardagi bilimlarni mustahkamlashga olib keladi.

Xato yozilgan paronim so'zlarni toping, ularni imlo qoidalariga mos ravishda to'g'rilab, daftaringizga ko'chiring.

Mart bir o'ladi, nomart – ming. Qarz ikki qo'ldan chiqadi. Onangni kiftingda ko'tarsang, singlingni kaftingda ko'tar. Birovga choq qazisang, o'zing tushasan.

Dunyoga boq, qaddi sendek kim bor yana,

Dovrug'i ham dardi sendek kim bor yana,

Xalq bo'lishga haddi sendek kim bor yana,

Moziyni yot etay desang – xalq bo'l, elim!

Ushbu gaplardagi qars, kaft, kift, yod, choh, mard, momard so'zlari xato yozilgan. Buni faqat o'ylash, fikrlash, leksikologiya bo'limi bo'yicha o'tilganlarni eslash, xotirlash va kerakli xulosalar chiqarish orqaligina topish mumkin. Bu esa o'quvchilarning xotirasini mustahkamlashga yordam beradi, ulardagi mustaqil ishlash ko'nikmalarini oshiradi.

Kakografiya usulining yana bir ko'rinishi matn ichida xato berilgan so'zlarni to'g'rilashdan iborat.

Masalan: Gaplarni o'qing, noto'g'ri yozilgan so'zlarni orfografiya qoidalariga mos ravishda ko'chirib yozing.

Ma'zali so'zga qulog' charchamas. Qatiq gap qarindoshga ham yoqmas. Toom lazati o'zidan, Odam lazati – so'zidan. Qulog'dan kirgan soviq so'z ko'ngilga borib muz bo'lar. Puling bo'masa bo'masin, shirin so'zing bo'sin. Bug'day noning bo'masin, Bug'day so'zing bo'sin. Tili shirinning do'si ko'p.

To'g'ri yozilishi: Mazali so'zga quloq charchamas. Qattiq gap qarindoshga ham yoqmas. Taom lazzati o'zidan, Odam lazzati – so'zidan. Quloqdan kirgan sovuq so'z ko'ngilga borib muz bo'lar. Puling bo'lmasa bo'lmasin, shirin so'zing bo'lsin. Bug'doy noning bo'lmasin, Bug'doy so'zing bo'lsin. Tili shirinning do'sti ko'p..

Bunga o'xshagan topshiriqlar o'quvchilardagi diqqat, ko'rish, eslash, solishtirish va kerakli xulosalar chiqarish kabi aqliy-ruhiy xususiyatlarning rivojlanishiga turtki bo'ladi.

Ona tili fanidan dars jarayonlarida o'quvchining yozma savodxonligi, imlo qoidalarini mukammal o'zlashtirganligi va yozma nutqning rivojlanganligini hamda husnixat bilan yozishini inobatga olib, yangi pedagogik texnologiyalar, ta'limiy o'yinlar orqali mashg'ulotlarni tashkil etish kelajakda yetuk intellektual barkamol avlodni tarbiyalashda muhim omil bo'lib hisoblanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Rasulova, R. B. (2020). Ona tili fanini o'qitishda iqtidorli o'quvchilarni aniqlash va ularning nutq madaniyatini oshirishda pedagogik texnologiyalar.
2. Baykabilov, U. A. (2020). Ta'limda innovatsion pedagogik texnologiyalardan foydalanish bosqichlari.
3. Бегматов Э. Ҳозирги ўзбек адабий тилининг лексик қатлами. - Тошкент: Фан, 1985
4. Дониёров Р. Ўзбек тили техник терминологиясининг айрим масалалари. Тошкент: Фан, 1977.
5. Собиров А. Она тили дарсларида какография усулидан фойдаланиш // Til va adabiyot ta'limi. –Тошкент, 2016
6. Турсунов Ж. Ўқувчиларда креатив қобилиятларни шакллантиришда эвристик таълим методларидан фойдаланиш // Maktab va hayot. – Тошкент, 2013
7. Begmatov E.B. Hozirgi o'zbek adabiy tilining leksik qatlamlari. T.:Fan:1985
8. Mahmudov N. Til tilsimi tadqiqi. –Toshkent: Mumtoz so'z, 2017
9. www.ziyouz.com
10. www.fayllar.org
11. www.muhamad.org